TIL VA "MAFKURA " O'RTASIDA HOKIMIYAT ALOQALARI

Raxmonova Kumush Alisher qizi
Navoiy davlat universiteti
2- bosqich magistranti

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek tilidagi " mafkura " tushunchasi lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi . Tadqiqot davomida , tilning nafaqat kommunikativ vosita, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, qadriyatlarni mustahkamlovchi va hokimiyatning ta'sirini kuchaytiruvchi vosita sifatidagi xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqotda Teun van Djik , Norman Fairclough Pierre Bourdieu va Michael Freeden kabi olimlarning " mafkura " haqidagi nazariy fikrlariga tayaniladi.

Kalit so'zlar: til, mafkura , diskurs , hokimiyat, mafkuraviy diskurs, lingvistik ta'sir , milliy qadriyatlar, tanqidir diskurs tahlili.

Kirish. Til insoniyatning ijtimoiy faoliyatida muhim o'rin tutadi. U nafaqat muloqot vositasi, balki siyosat , mafkura va hokimiyat munosabatlarini shakllantiruvchi mexanizmdir . Har qanday jamiyat o'z mafkurasini til orqali namoyon qiladi va uning imkoniyatlaridan foydalangan holda jamiyat onggiga singdiradi . Shu sababdan til va " mafkura " o'rtasidagi munosabat hokimiyat masalasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy axborot makonida til vositasida jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijtimoiy hodisalarga muayyan baho berish va ayrim qarashlarni ustuvor mavqega olib chiqish jarayonlari tobora kuchaymoqda. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari, siyosiy chiqishlar, rasmiy hujjatlar va internet diskursida qo‘llanadigan lingvistik birliklar jamiyatning voqelikni idrok etishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Maqolaning maqsadi til va mafkura o‘rtasidagi hokimiyat munosabatlarini lingvistik jihatdan tahlil qilish, mafkuraviy ta’sirning til birliklari va diskurs orqali namoyon bo‘lish mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

TIL VA MAFKURANING O‘ZARO MUNOSABATI

Mafkura jamiyat a'zolarining voqelikni anglash, baholash va talqin qilishga xizmat qiluvchi g'oyalar va qarashlar tizimidir . Michael Freeden uni " 1 Mafkura o'zaro munosabatga kirishuvchi siyosiy tushunchalar va ma'nolar tizimi " sifatida talqin qiladi.Bu yondashuv mafkuraviy mazmunning til orqali shakllanishi va qayta talqin qilinishini anglashga yordam beradi.

Mafkuraning til orqali namoyon bo'lishida leksik birliklarni to'g'ri tanlash masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, biror ijtimoiy jarayon davomida " islolot" , " yangilanish" , " o'zgarish" yoki " inqiroz" so'zlaridan foydalanish voqelikka turlicha munosabatni yuzaga keltirishi mumkin. Ushbu birliklar bir hodisaning turli jihatlarini oldinga chiqaradi va adresatning uni qanday qabul qilishiga ta’sir ko‘rsatadi.

DISKURS VA HOKIMIYAT MUNOSABATLARI

Til va hokimiyat o'rtasidagi munosabatlar o'rganilganda diskurs masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Diskurs tilning muayyan ijtimoiy , siyosiy va madaniy vaziyatdagi faoliyatini ifodalaydi, unda nafaqat axborot uzatish, balki ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish jarayoni ham muhim o'rin egallaydi. Teun van Djik "mafkura" va " diskurs " o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish jarayonida, mafkuraviy qarashlarning ijtimoiy guruhlar tomonidan shakllantirilishi , saqlanishi va uzatilishi kabi tomonlariga e'tibor qaratadi. Uning yondashuvida " Diskurs ijtimoiy bilim va mafkuraviy tasavvurlarni ifodalash hamda qayta ishlab chiqarishning muhim vositasidir"2

O‘ZBEK TILIDA MAFKURAVIY DISKURSNING AYRIM XUSUSIYATLARI

1 Freeden M. Ideologies and Political Theory: A Conceptual Approach. – Oxford: Clarendon Press, 1996. – 592 p.

2 Van Dijk T. A. Ideology: A Multidisciplinary Approach. – London: SAGE Publications, 1998. – 384 p.

O'zbek tilidagi ijtimoiy-siyosiy diskursda "mafkura" va "diskurs" munosabatlarini o'rganish , milliy qadriyatlar, tafakkur va zamonaviy kommunikativ jarayonlarni tahlil qilish uchun muhimdir.

Ommaviy diskursda ko'p qo'llanadigan " vatanparvarlik" , " mustaqillik" , " yoshlar" ," islohot" , "ma'naviyat" ," milliy qadriyatlar" singari birliklar muhim konseptual mazmun kasb etadi . Ular orqali milliy o'zlik, birlik, taraqqiyot, jamoaviylik kabi g'oyalarni ifodalash mumkin. Masalan, " milliy qadriyatlarni asrash" birikmasi nafaqat madaniyat merosni , balki milliy o'zlikni anglash, davomiyligini ta'minlash g'oyalarini ham bildiradi .

Demak, bunday birliklarni tahlil qilishda ularning faqatgina lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratishning o'zi yetarli emas . Uning vazifasi, kim tomonidan aytilayotganligi, tinglovchisi kim ekanligi va qanday ijtimoiy munosabat uchun xizmat qilayotganligi ham hisobga olinishi lozim.

Xulosa

Til va mafkura o‘rtasidagi hokimiyat aloqalari murakkab ijtimoiy-lingvistik hodisa bo‘lib, ular jamiyatdagi qarashlar, qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Til nafaqat mavjud mafkuraviy qarashlarni ifodalash, balki ularni shakllantirish, mustahkamlash va qayta talqin qilish vositasi hamdir.

O‘zbek tilidagi ijtimoiy-siyosiy diskursni mazkur yondashuv asosida tadqiq etish milliy mafkuraviy tushunchalarning lingvistik mohiyatini ochish, ularning jamiyat ongidagi o‘rnini aniqlash va tilning ijtimoiy hokimiyat bilan bog‘liq imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Van Dijk T. A. Ideology: A Multidisciplinary Approach (Mafkura: ko‘p tarmoqli yondashuv). – London: SAGE Publications, 1998. – 384 p.
2. Van Dijk T. A. Discourse and Power (Diskurs va hokimiyat). – New York: Palgrave Macmillan, 2008.

3. Fairclough N. Language and Power (Til va hokimiyat). – 3rd ed. – London: Routledge, 2015.
4. Bourdieu P. Language and Symbolic Power (Til va ramziy hokimiyat). – Cambridge: Harvard University Press, 1991.
5.Freeden M. Ideologies and Political Theory: A Conceptual Approach (Ideologiyalar va siyosiy nazariya: konseptual yondashuv). – Oxford: Clarendon Press, 1996.
6. Eagleton T. Ideology: An Introduction (Mafkura: kirish). – London: Verso, 1991.
7. Wodak R., Meyer M. (eds.). Methods of Critical Discourse Analysis (Tanqidiy diskurs tahlili metodlari). – London: SAGE Publications, 2001.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
9. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.
10. Falsafa: qomusiy lug‘at. – Toshkent: Sharq, 2004.